

**YUK HOSIL QILUVCHI VA YUK QABUL QILUVCHI PUNKTLAR**

Xalimov Javohirbek Abdusamat o'g'li

*Andijon Davlat Texnika Instituti
Avtomobilsozlik va Transport kafedrası
assistent o'qituvchisi*

E-mail: javohirhalimov97@gmail.com

Tel: +998972724646

Axmadjonov Soxibjon Sobirjon o'g'li

*Andijon Davlat Texnika Instituti
Transport va logistika yo'nalishi 2-kurs talabasi
Tel: +998500775101*

Annotatsiya: Yuklarni tashish ishlab chiqarish jarayonining davomidir. U sanoatda ishlab chiqarilgan, qishloq xo'jaligida yetishtirilgan va boshqa sohalardagi mahsulotni iste'molchiga yetkazib beradi.

Ammo ishlab chiqarish hajmi bilan tashilgan yuklar miqdori yil davomida, iste'molchilar o'rtasidagi taqsimoti o'zaro teng bo'lmaydi. Sanoatda, ayniqsa qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotning barchasi ham transportda tashilmaydi. Mahsulotning ma'lum qismi o'sha joyning o'zida iste'mol etiladi. Mahsulotlarning ayrim qismi esa transportda ikki va undan ortiq marta ham tashilishi mumkin.

Kalit so'zlar: punkt, yuk, transport vositalari

Yuk hosil etuvchi punktdan jo'natilgan yuk miqdori ayni punktning jo'natish bo'yicha yuk aylanmasini xarakterlaydi. Yuk qabul etuvchi punktga keltirilgan yuk miqdori, ayni punktning tovar qabul etish bo'yicha yuk aylanmasini xarakterlaydi. Yuk yig'iluvchi va qabul etiluvchi asosiy punktlarga sanoat korxonalari, jamoa va fermer xo'jaliklari, tegirmon (elevators)lar, tayyorlov punktlari, konlar, temir yo'l bekatlari, suv portlari, aeroportlar, qurilish maydonlari, moddiy-texnika ta'minoti



baza va omborlari, do'kon va shu kabilar kiradi[1]. Yuk hosil etuvchi va ularni qabul etuvchi punktlar joylashuvi hamda ular o'rtasidagi transport aloqalari ishlab chiqaruvchi hamda iste'mol etuvchi korxona va tashkilotlar joylashuvi va iqtisodiy ahamiyati, tovar almashinuv shoxobchalari, ishlab chiqaruvchi kuchlar joylashuvi hamda barcha turdagi transportlar ortish-tushirish punktlari joylashuvi bilan chambarchas bog'liqdir.

Asosiy yuk hosil etuvchi punktlar xarakteri ayni hudud va undan tashqarida foydalanuvchi va iste'mol etiluvchi sanoat yoki qishloq xo'jalik mahsulotlari turi bilan bog'liqdir. Avtomobil transporti bilan jo'natiluvchi umumiy yuk miqdori ishlab chiqaruvchi korxonalar quvvati, qishloq xo'jaligi maydonlari va ulardagi ish unumdorligi bilan bog'liqdir[2]. Ayrim davrlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar joylarda va omborlarda yig'ilib qolishi mumkin.

Yuklarning bir joyda yig'ilib qolishiga misol tariqasida zavod, shaxta va konlarning sutkali mahsuloti, jamoa xo'jaliklarining tayyorlov punkta yoki elevatorlarga topshirilgunga qadar yig'ilib qolgan don mahsuloti, paxta xomashyosi va boshqalarni keltirish mumkin. Yuk hosil etuvchi punktlar qatoriga har kuni kam miqdorda yuk tashiladigan bir qancha ob'ektlar ham kiritilishi mumkin. Bularga bozorlar, do'konlar, aholi yashovchi joylardan chiquvchi axlatlarni tashish kiradi.

Yuk qabul etuvchi punktlar ta'minot zarurati, mahsulotlarni yetkazib berish imkoniyati bilan bog'likdir. Har xil turdagi yuklarni yetkazib berish vaqtlari ko'pincha moddiy-texnik ta'minotning yo'lga qo'yilganligi bilan bog'liqdir.

Ba'zi holatlarda keltirilgan yuklarning ma'lum qismi ishlov berilgandan so'ng tayyor mahsulot yoki yarim tayyor mahsulot sifatida qaytadan transportga qaytarilishi mumkin (dastgohlar, un, oziq-ovqat mahsulotlari, paxta tolasi, gazlama), ba'zida esa yuklar to'la ishlatilib, transportga qaytarilmaydi (yonilg'i, moylash yog'lari, kislota, oziq-ovqat mahsulotlari, qurilishda ishlatiluvchi materiallar va konstruktsiyalar)[3]. Ba'zi punktlar ishlab chiqarish xususiyati yoki faoliyatiga ko'ra bir mahalning o'zida kombinatsiyalashgan yuk jo'natuvchi va qabul etuvchi bo'lishi ham mumkin (zavod va fabrikalar, temir yo'l va suv transporti bekatlari, ulgurji baza va omborlar). Bunday kombinatsiyalashgan punktlarning tonnalarida o'lchanuvchi yuk aylanmasi



jo'natiluvchi va qabul etiluvchi, ba'zida esa ular orqali tranzit yuklarning yig'indisi bilan o'lchanadi[6].

Har qanday avtotransport korxonasining yuk tashish hajmi — bu tashishga mo'ljallangan yoki ma'lum davr ichida tashilgan, tonnalarda o'lchanuvchi yuk miqdoridir. Avtotransport korxonasining yuk aylanmasi deyilganda ma'lum davr ichida tashilgan yuk miqdorining tashish masofasiga ko'paytmasi tushuniladi va u tonna-kilometrda o'lchanadi. Yuk tashish hajmi va yuk aylanmasi bajarilish vaqtiga ko'ra bir sutkali, bir oyli, bir chorakli, yarim yilli va bir yilli bo'lishi mumkin. Bir yilli yuk tashish hajmi va yuk aylanmasi odatda notekis bo'lib, unga ba'zi yuklar tashilishining mavsumiyligi, oylar bo'yicha kalendar va ish kunlari soni, yo'l-iqlim sharoitlari va boshqalar ta'sir etadi. Bir yilli yuk aylanmasi (tashish hajmi) notekisligining O'zbekiston sharoitida oxirgi yillardagi choraklar bo'yicha bo'linishi quyidagicha: I chorak — 23....23,5 %, II - chorak 24....24,5 %, I I I - 26....27 % va 1U-25....25,5 % ni tashkil qilayotir[7].

Yuk aylanmasining notekislik darajasi notekislik koeffitsienti bilan xarakterlanib, u maksimal yuk aylanmasining o'rtacha yuk aylanmasi qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi.

Yuk aylanmasi notekisligining yuqori bo'lishi transport vositalarining yil davomida notekis yuklanishiga olib keladi. Bu hol esa ulardan samarali foydalanishni kamaytiradi hamda tashish tannarxining qimmatlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois avtotransport korxonalarining rahbar xodimlari yuk aylanmasining notekislik koeffitsienta miqdorini aniqlash bilan cheklanib qolmay, uni tekislash chora-tadbirlarini ishlab chiqishi va transport vositalari ish rejimini yuk aylanmasining yil davomidagi notekisligiga qarab tashkil qilishlari zarur[8].

Yuk tashish hajmi va yuk aylanmasi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

- tashiluvchi yuk tarkibi yoki nomenklaturam (don, paxta, qand lavlagi, qurilish materiallari, mashina va jihozlar, neft mahsulotlari va boshqalar);

- yuk miqdoriga ko'ra: katta miqdordagi, ya'ni tashish yo'nalishida kup miqdorda bir xil turdagi yuklar; to'pto'p (partion), ya'ni bir xil turdagi yuklar miqdori



nisbatan kam bo'lgan, yuk aylanmasi, yuk jo'natuvchilar (qabul etuvchilar) o'zgaruvchan; mayda partiyali yoki yig'ib tashiluvchi

- yuk miqdori oz, yuk jo'natuvchilar va qabul etuvchilar o'zgaruvchan.

Mayda partiyali yuklarga misol qilib savdo va ovqatlanish korxonalari yuklarini, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari (kimyoviy tozalash, kir yuvish punktlari va h.k.) yuklarini tashishni ko'rsatish mumkin;

- tashish vaqtini o'zlashtirish bo'yicha: doimiy, ya'ni yil oylari ichida o'zgarmas; vaqtinchalik

- ma'lum davrda tashilgandan so'ng, tashilishi qaytarilmaydigan yuklar; mavsumiy

- yilning ma'lum faslida, qisqa vaqt ichida ko'p mikdordagi yuklarni tashish (don tashish, paxta xomashyosi, qandlavlagi, kartoshka, sabzavot, ho'l meva) shu kabilar. Ular yig'im-terim va tayyorlov vaqtlaridagina tashiladi[5].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Ikromov N. et al. Analysis of transport and its cargo processes //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 548. – C. 03021.

Abdusamat o'g'li H. J. et al. MAINTENANCE AND REPAIR OF CARS RUNNING ON LIQUEFIED AND COMPRESSED GAS //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 36. – №. 5. – С. 181-184.

Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.

Abdusamat Y., Nigora A., Javohir X. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ INCREASING ASSESSMENT CRITERIA OF THE STUDENT KNOWLEDGE OBJECTIVELY WITH SCIENTIFIC RESEARCH //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по естественным наукам. Подробнее на [www. t.](http://www.t.) – Т. 2. – С. 118.

Abdusamat o'g'li H. J. et al. ORGANIZATION OF QUALITY TRANSPORT SERVICE TO THE POPULATION. – 2024.



Abdusamat o'g'li H. J. STUDY THE THEORETICAL BASIS OF ANY CHANGES THAT CAN OCCUR IN THE FREE AND FORCED VIBRATION OF AUTOMOTIVE PARTS MATERIALS //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 108-111.

Abdusamat o'g'li H. J. et al. SIFATLI YUK TASHISHNI TASHKIL QILISH VA UNING SAMARADORLIK KO 'RSATRKICHLARINI OSHIRISH. SANOAT YUKLARINI TASHISH //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2024. – Т. 36. – №. 5. – С. 185-189.

Abdusamat o'g'li H. J. et al. YUKLARNI TASHISH, YUK XOSIL QILUVCHI VA YUK ISTE'MOL QILUVCHI JOYLAR. – 2024.

9.Хўжаев Б А АВТОМОБИЛЛАРДА ЮК ВА ПАССАЖИРЛАРНИ ТАШИШ АСОСЛАРИ